



ADABIYOT DARSLARIDA TERMINOLOGIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Abdullayev F.

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
nodavlat ta'lim muassasasi samarqand
kampusi stajyor-o'qituvchisi
+998993383070
abdullayevf1987@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada adabiyot darslarida terminologik kompetensiyani shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari, didaktik tamoyillari va amaliy mexanizmlari yoritiladi. Terminologik kompetensiya lingvodidaktik kategoriya sifatida talqin qilinib, uning tarkibiy komponentlari aniqlanadi. Shuningdek, kompetensiyani rivojlantirishning bosqichli modeli hamda samarador metodlari taklif etiladi.

Kalit soʻzlar: adabiyot terminlari, kognitiv yondashuv, diskurs, raqamli model, interaktiv metod, gamifikatsiya, kompetensiya.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы, дидактические принципы и практические механизмы формирования терминологической компетенции на уроках литературы. Терминологическая компетенция рассматривается как лингводидактическая категория, и определяются её структурные компоненты. Также предлагается поэтапная модель и эффективные методы развития компетенции.

Ключевые слова: терминологическая компетенция, литературоведение, лингвистическая дидактика, дискурс, познавательный процесс, интерпретация, рефлексия.



Abstract. This article discusses the theoretical and methodological foundations, didactic principles and practical mechanisms of forming terminological competence in literature lessons. Terminological competence is interpreted as a linguodidactic category and its structural components are identified. A phased model and effective methods of developing competence are also proposed.

Keywords: terminological competence, literature education, linguistic didactics, discourse, cognitive process, interpretation, reflection.

Zamonaviy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor metodologik paradigma sifatida e'tirof etilmoqda. Adabiyot darslarida o'quvchilarning nazariy tushunchalarni o'zlashtirishi ko'pincha reproduktiv darajada qolib ketmoqda. Terminlarning mexanik yodlanishi esa ularning badiiy matn tahlilida faol qo'llanishiga to'sqinlik qiladi.

Shu bois terminologik kompetensiyani rivojlantirish muammosi dolzarb ilmiy-metodik masala sifatida qaraladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kognitiv lingvistika vakillaridan bo'lgan George Lakoff va Ronald Langackerlar til birliklarining konseptual asosini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Diskurs nazariyasida Teun A. van Dijk matni ijtimoiy-kognitiv hodisa sifatida talqin qilinishi haqida yondoshgan bo'lsa, psixologik asoslar esa Lev Vygotskyning yaqin rivojlanish zonasi konsepsiyasi bilan bog'liq. Biroq adabiyot ta'limida terminologik kompetensiyani tizimli metodika asosida rivojlantirish masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan.

Jahon adabiyotshunosligida terminologik muammolarning tadqiqi va adabiy jarayonga tatbiqu ilmiy akademik maktablar faoliyatining mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Yevropa adabiyotshunosligida sezilarli iz qoldirgan mifologik (A.Duglas, V. Grimm, Ya.Grimm, A.N.Veselovskiy), nazariy poetika (A.A.Potebnya), formal (V.Shklovskiy, V.Jirmunskiy va boshqalar) va struktural (K. Levi-Stros, R. Bart, Yu. Lotman) maktablar faoliyatida adabiyotshunoslik terminologiyasini identifikatsiyalash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. XIX-XX



asr bo‘lag‘asida modernizm va uning ko‘rinishlari, strukturalizm hamda postmodern adabiyotining ommalashuvi jarayonida adabiyotshunoslik atamalari identifikatsiyasi jiddiy o‘rganilishi lozim bo‘lgan ilmiynazariy muammo darajasiga ko‘tarilgan¹.

O‘zbek adabiyotshunosligi esa XX asr boshlariga qadar arabfors-turk mumtoz adabiyotshunosligining terminologik jihatlariga e‘tibor qaratilgan. XX asr boshlariga kelib, A.Fitrat, A.Sa‘diy ishlarida o‘zbek mumtoz adabiyotshunosligining terminologik apparatini yevropacha andozalarga solish jarayoni boshlangan.

Tadqiqotning maqsadi. Adabiyot darslarida terminologik kompetensiyani rivojlantirishning ilmiy-metodik modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini aniqlash. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi adabiyot darslarida o‘quvchilarning terminologik kompetensiyasini rivojlantirishning samarali metod va usullarini aniqlash hamda ularni amaliyotga joriy etishdan iborat. Shuningdek, tadqiqot davomida o‘quvchilarning adabiy terminlarni to‘g‘ri tushunishi, nutqda qo‘llay olishi va badiiy asarlarni tahlil qilish jarayonida ulardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish ko‘zda tutiladi.

Tadqiqot metodlari. Mazkur tadqiqotda adabiyot darslarida terminologik kompetensiyani rivojlantirish jarayonini o‘rganish va tahlil qilish metodlardan foydalanildi.

Nazariy tahlil metodi pedagogik, metodik va adabiyotshunoslikka oid ilmiy manbalar o‘rganilib, terminologik kompetensiyaning mazmun-mohiyati hamda uni rivojlantirish yo‘llari tahlil qilindi. Kuzatish metodi adabiyot darslari jarayoni bevosita kuzatilib, o‘quvchilarning terminlardan foydalanish darajasi, o‘qitish usullarining samaradorligi aniqlashtirildi. Tajriba-sinov metodi maxsus ishlab chiqilgan topshiriqlar va interfaol metodlar amaliyotda sinovdan o‘tkazilib, ularning

¹ <https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/download/4126/4186/7786>



samaradorligi baholandi. Suhbat va so‘rovnoma metodi o‘quvchilar va o‘qituvchilar bilan suhbatlar o‘tkazilib, terminologik bilimlarni o‘zlashtirishdagi muammolar va ehtiyojlar aniqlandi. Tahlil va umumlashtirish metodi olingan natijalar tahlil qilinib, umumlashtirildi hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Terminologik kompetensiyaning tuzilmasi. Terminologik kompetensiya o‘quvchining adabiyotga oid ilmiy tushunchalarni anglash, ularni tahlil jarayonida qo‘llash, diskurs doirasida interpretatsiya qilish hamda o‘z fikrini terminlar asosida asoslay olish qobiliyatini ifodalovchi integrativ didaktik kategoriya hisoblanadi. Mazkur kompetensiya ko‘p komponentli tuzilishga ega bo‘lib, u kognitiv lingvistika, diskurs nazariyasi hamda sotsiokognitiv yondashuv g‘oyalariga tayangan holda izohlanadi.

Kognitiv komponentda o‘quvchining adabiy terminlar haqidagi nazariy bilimlarini o‘z ichiga oladi. Bunda adabiy atamalarni bilish, terminlarning mazmun-mohiyatini tushunish, terminlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash kiradi.

Amaliy-operatsion komponentda esa o‘quvchining terminlarni amaliy faoliyatda qo‘llash qobiliyatini ifodalaydi va terminlardan og‘zaki va yozma nutqda foydalanish ko‘nikmalarini oshirib, badiiy asarlarni tahlil qilishda terminlarni qo‘llab, terminlar asosida fikrni izchil bayon etiladi.

Kommunikativ komponentda o‘quvchining terminlardan muloqot jarayonida samarali foydalanishini nazarda tutiladi. Ilmiy va badiiy nutq madaniyatini, terminlar orqali o‘z fikrini aniq va ravon ifodalay olish, munozara va bahslarda terminologik birliklardan foydalanishga e‘tibor qaratiladi.

Refleksiv komponentda o‘quvchining o‘z bilim va ko‘nikmalarini baholash hamda tahlil qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. O‘zining terminologik bilim darajasini anglab, xatolarni aniqlash va tuzatish va o‘z ustida ishlashga intilishga inobatga olinadi.

Motivatsion komponentda terminologik kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, o‘quvchining o‘rganishga bo‘lgan ichki ehtiyojini ifodalaydi.



O'quvchilarda adabiyot faniga qiziqish orqali yangi terminlarni o'rganishga intilish, bilimlarni chuqurlashtirishga motivatsiya beriladi.

Terminologik kompetensiya murakkab va ko'p qirrali tuzilishga ega bo'lib, uning har bir komponenti o'zaro uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Ushbu komponentlarni izchil shakllantirish adabiyot darslarining samaradorligini oshiradi va o'quvchilarning tahliliy hamda ilmiy tafakkurini rivojlantiradi.

Tajriba-sinov natijalari. Tadqiqot doirasida adabiyot darslarida terminologik kompetensiyani rivojlantirish samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tajriba-sinov ishlari 3 bosqichda olib borildi: aniqlovchi, shakllantiruvchi va nazorat bosqichlari.

Ko'rsatkich	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
Termin mazmunini anglash	64%	83%
Matnda qo'llash	58%	81%
Mustaqil tahlil	52%	78%
O'rtacha ko'rsatkich	58%	80%

Natijalar shuni ko'rsatdiki, taklif etilgan metodika asosida o'quvchilarning terminologik kompetensiyasi o'rtacha 22% ga oshgan.

Muhokama. Mazkur tadqiqot natijalari adabiyot darslarida terminologik kompetensiyani rivojlantirish jarayoni murakkab va ko'p omilli ekanligini ko'rsatdi. O'quvchilarning adabiy terminlarni o'zlashtirishi faqat ularni yodlash bilan cheklanib qolmay, balki ularni amaliy qo'llash, tahlil qilish va muloqot jarayonida faol ishlatish bilan chambarchas bog'liqdir.

Tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko'rsatdiki, an'anaviy o'qitish usullarida terminlar ko'proq nazariy darajada berilib, o'quvchilarning ularni real tahlil jarayonida qo'llash ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmaydi. Aksincha, interfaol metodlar va amaliy mashqlar tizimi qo'llanilgan tajriba guruhida o'quvchilarning terminologik faolligi sezilarli darajada oshdi.



Shuningdek, tadqiqot davomida quyidagi muhim jihatlar aniqlandi:

- terminlarni kontekstda (badiiy matn asosida) o‘rganish ularning mazmunini chuqurroq anglashga yordam beradi;
- guruhli va hamkorlikdagi faoliyat o‘quvchilarning terminlardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi;
- muntazam takrorlash va mustahkamlash ishlari terminologik bilimlarni barqarorlashtiradi.

Biroq ayrim muammolar ham kuzatildi. Jumladan, ba’zi o‘quvchilarda terminlarni nutqda qo‘llashda ishonchsizlik, ularni chalkashtirish yoki noto‘g‘ri ishlatish holatlari uchradi. Bu esa terminologik kompetensiyani shakllantirish jarayonida individual yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari boshqa ilmiy ishlar bilan hamohang bo‘lib, terminologik kompetensiyani rivojlantirishda faol o‘qitish metodlarining ustuvorligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, o‘qituvchining metodik mahorati, darsni to‘g‘ri tashkil etishi va o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olishi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, adabiyot darslarida terminologik kompetensiyani samarali rivojlantirish uchun nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan, interfaol va tizimli yondashuvni qo‘llash zarur.

Tajriba natijalari terminologik kompetensiya faqat nazariy tushuntirish orqali emas, balki diskursiv tahlil va refleksiya asosida shakllanishini ko‘rsatdi. Terminlarni kontekstda o‘rganish ularning ongli o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

Xulosa. Adabiyot darslarida terminologik kompetensiyani rivojlantirish orqali o‘quvchilarning analitik tafakkurini shakllantiradi. Interpretativ ko‘nikmalarni rivojlantirilib, nazariy bilimning amaliy qo‘llab ko‘rish imkoniyati ta’minlaydi. Bosqichli metodik model kompetensiyaviy ta’lim talablariga mos keladi hamda ta’lim samaradorligini oshiradi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
2. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
3. Yo‘ldoshev B. Matn lingvistikasi asoslari. Toshkent: Fan, 2008.
4. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 2014. 2011.